


Odam Anatomiyasi

ATLAS

Splanxnologiya va yurak qon-tomir tizimi

Sh.J. Teshayev, E.A. Xaribova
Rossiya Fanlar Akademiyasi
akademigi L.L.Kolesnikov tahriri ostida



2
TOM

«BiTuBi Grupp» nashriyoti
Toshkent - 2019

• O'zbek • Lotin • Rus • Ingliz


Анатомия человека

АТЛАС

Спланхнология  Сердечно-сосудистая система

Ш.Ж. Тешаев, Е.А. Харибова

Под редакцией
академика РАН Л.Л. Колесникова



2
ТОМ

Издательство «BiTuVi Grupp»
Ташкент - 2019

В ТРЁХ ТОМАХ

Рекомендовано для студентов учреждений высшего медицинского профессионального образования, обучающихся по специальности «Лечебное дело», «Педиатрия», «Стоматология», «Медицинская педагогика», «Медицинская биология» и «Медико-профилактическое дело» по дисциплине «Анатомия»

Odam Anatomiyasi

ATLAS

Splanxnologiya va yurak qon-tomir tizimi

Sh.J. Teshayev, E.A. Xaribova

Rossiya Fanlar Akademiyasi
akademigi L.L. Kolesnikov tahriri ostida



2

TOM

«BiTuBi Grupp» nashriyoti
Toshkent - 2019

UCHTA TOMDA

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining «Davolash ishi», «Pediatriya», «Stomatologiya», «Tibbiy pedagogika», «Tibbiy biologiya» va «Tibbiy profilaktika» yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarga «Anatomiya» fani bo'yicha tavsiya etiladi

UDK 611(084.121)(07)
BBK 28.706ya61
A 64

Tuzuvchi mualliflar:
Sh.J.Teshaev, E.A.Xaribova

Tahririyat guruhi:
Teshaev Shuxrat Jumayevich
Xaribova Elena Aleksandrovna
Kolesnikov Lev Lvovich
Inoyatov Amrillo Shodiyevich

Matnni ilmiy tahrirdan o'tkazgan va o'zbek tilidagi anatomik atamalarni to'g'ri tanlashni amalga oshirgan
Radjabov Axtam Boltayevich rahbarligidagi Anatomiya, klinik anatomiya (OXTA) kafedrası xodimlari:
Baymuradov Ravshan Radjabovich, Xasanova Dilnoza Axrorovna, Hojiyev Dilmurod Yaxshiyevich, Temirova
Nazokat Rustamovna, Kamalova Shaxnoza Muzaffarovna, Tuxsanova Nasiba Esanovna
Rossiya Fanlar Akademiyasi akademigi L.L.Kolesnikov tahriri ostida

Taqrizchilar:
t.f.d., professor N.H. Shamirzayev
t.f.d., professor I.V. Gayvorovskiy
t.f.d., professor R.J. Usmonov
Klinik taqrizchi: t.f.d., professor D.S. To'xtasinova

A64 Odam anatomiyasi: 3 tomli atlas. 2 T. Splanxnologiya va yurak qon-tomir tizimi / tuzuvchi mualliflar Sh.J.Teshaev, E.A.Xaribova. – T.: «BiTuBi Grupp» nashriyoti, 2019. – 666 b.: rasm.

Odam anatomiyasi – fundamental tibbiy – biologik fan bo'lib, inson tanasidagi a'zolar tizimini yaxlit va har bir a'zoni alohida o'rganadi, ularni vazifasiga bog'liq ravishda rivojlanish qonuniyatlarini tadqiq qiladi.

Ushbu atlas – darslik esa anatomiya fanini o'qitishdagi barcha yangiliklarni qamrab olib, o'qitishni yangi bosqichga olib chiqadi.

Yaratilgan ushbu atlas A.I.Yevdokimov nomidagi Moskva davlat tibbiyot – stomatologiya universiteti va Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti professor – o'qituvchilarining hamkorlikdagi birinchi ishlari hisoblanadi.

Atlas – darslik nafaqat tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari, magistrlar va klinik ordinatorlar uchun, balki tibbiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan barcha xodimlar uchun ham foydadan xoli emas.

Atlas tibbiyot oliy ta'lim muassasalari bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida anatomiya fani dasturlari va o'quv rejalariga mos holda tuzilgan.

Atlas – darslik 3 tomdan iborat bo'lib, anatomik atamalarning nomlari 4 ta tilda (lotin, o'zbek, rus, ingliz) berilgan. Darslikda 1500 dan ortiq yuqori sifatga ega rasmlar, jadvallar va rentgenogrammalar keltirilgan bo'lib, o'quvchi uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochib beradi. Rasmlarni tavsiflovchi yozuvlar, atamalar rangli shriftda berilgan, rasmlar ostida esa atamalarning ingliz tilidagi tarjimai keltirilgan. Rus, ingliz va lotin tilidagi anatomik terminlar 2003 yildagi «Xalqaro Anatomik terminlar tasnifi» ga asoslanib tayyorlandi, o'zbek tilidagi anatomik terminlar esa 2007 yildagi professor F.N. Baxadirov tahriri ostida chiqarilgan «Xalqaro Anatomik terminologiya» ga asoslangan.

Bunday 4 tildagi atlas – darslik nafaqat o'zbek tilida tahsil olayotgan talabalar uchun, balkim rus va ingliz tillarida odam anatomiyasini o'rganmoqchi bo'lganlar uchun ham asosiy qo'llanma sifatida foydalanish mumkin

Ikkinchi tomda ichki a'zolar (hazm, nafas, ayiruv, tanosil va endokrin tizimlari) hamda yurak - qon tomir va limfa tizimlari to'g'risida to'liq ma'lumotlar keltirilgan.

UDK 611(084.121)(07)
BBK 28.706ya61

Mazkur darslik huquqi «BiTuBi Grupp» OAJ ga tegishli. «BiTuBi Grupp» OAJ yozma ruxsatisiz darslikni har qanday shaklda chop etish va tarqatish mumkin emas.

© Sh.J.Teshaev, E.A.Xaribova, 2017
© L.L.Kolesnikov, 2017
© «BiTuBi Grupp» OAJ, 2019

Atlas mualliflari va «BiTuBi Grupp» nashriyoti xodimlari Rossiya Fanlar Akademiyasi akademigi, professor Lev Lvovich Kolesnikovga [Rossiya Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi A.I.Yevdokimov nomidagi Moskva davlat tibbiyot-stomatologiya universiteti Odam anatomiyasi kafedrası mudiri] shaxsiy arxivdagi suratlardan foydalanishga ruxsat bergani uchun minnatdorchilik bildiradi.

Светлой памяти наших учителей и наставников

Льва Львовича Колесникова и

Сергея Александровича Тена

Bizning ustozlarimiz

Lev Lvovich Kolesnikov va

Sergey Aleksandrovich Ten

larning yorqin xotiralariga bag`ishlanadi



ЯНУШЕВИЧ ОЛЕГ ОЛЕГОВИЧ

Ректор Московского государственного
медико-стоматологического университета
им. А.И. Евдокимова, член-корреспондент РАН,
доктор медицинских наук, профессор.

Международное сотрудничество на сегодняшний день является эффективным средством повышения качества научно-образовательной деятельности и конкурентоспособности образовательной организации по приоритетным направлениям развития науки и техники. В этой связи международная деятельность рассматривается в качестве неотъемлемой части общей стратегии любого университета Российской Федерации, в том числе Московского государственного медико-стоматологического университета имени А.И. Евдокимова, и служит целям его активации вхождения в мировое образовательное пространство.

Важнейшей тенденцией развития современного высшего образования во всём мире является процесс интернационализации, который предполагает взаимообогащение содержания образования, анализ и использование положительного зарубежного опыта и на этой основе повышение эффективности образования. Одной из форм интернационализации является международная научная активность, включая международные научные публикации и издания совместных учебников и учебных пособий.

Значимым для нас событием стало подписание меморандума о сотрудничестве между нашим университетом и Бухарским государственным медицинским институтом имени Абу Али ибн Сина в мае 2017 года. В рамках данного договора ведётся активное взаимодействие по различным направлениям в сфере образования и науки. Это способствует усилению международных позиций и повышению рейтинга университетов в мировом образовательном пространстве.

Подтверждением правильности выбора курса нашего сотрудничества явился прошедший в Ташкенте Российско-Узбекский образовательный форум в октябре 2018 года, где между ведущими образовательными организациями двух государств были рассмотрены вопросы открытия совместных факультетов и образовательных программ, повышение квалификации профессорско-преподавательского состава, проведение совместных научных исследований, написание совместной учебной и научной литературы.

В этом контексте своевременным явилось совместное издание трёхтомного атласа по Анатомии, который полностью отвечает всем требованиям, предъявляемым к современной учебной литературе.

Этот созданный в сотрудничестве атлас является первой ласточкой в создании литературы нового поколения.

Уверен, что данный совместный атлас послужит дальнейшему укреплению добрососедских отношений между Россией и Узбекистаном и надеюсь на дальнейшее плодотворное сотрудничество между нашими университетами.

О.О. Янушевич.



INOYATOV AMRILLO SHODIYEVICH

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro
davlat tibbiyot instituti rektori,
tibbiyot fanlari doktori, professor.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2017 yildagi № 2909 – sonli qaroriga asosan oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, qo'shma yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish va ularni oliy ta'lim muassasalarining ta'lim jarayoniga keng tatbiq etish, oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv, o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlash, shu jumladan, eng yangi xorijiy adabiyotlarni sotib olish va tarjima qilish, axborot-resurs markazlari fondlarini muntazam yangilab borish vazifalari ko'rsatilgan. Bu vazifalardan kelib chiqqan holda, ushbu yaratilgan o'quv adabiyoti qarorda ko'rsatilgan barcha talablarga mos keladi.

2018 yilning 18-19 oktyabr kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tgan “Rossiya – O'zbekiston ta'lim forumi”da ikki mamlakat yetakchi oliy o'quv yurtlari hamkorligida qo'shma fakultetlar hamda dasturlarni ochish, pedagog va professorlar malakasini oshirish, qo'shma ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, qo'shma o'quv va ilmiy adabiyotlar yaratish masalalari ko'rib chiqildi.

Fan va ta'lim doirasida xalqaro hamkorlik qilish maqsadida Rossiya Federatsiyasining A.I.Yevdokimov nomidagi Moskva davlat tibbiyot stomatologiya universiteti va Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti o'rtasida 2017 yil 19 maydagi №17 sonli (2-b band) (o'quv va o'quv-metodik qo'llanmalar yaratish, hamkorlikda monografiyalar tayyorlash, ilmiy tekshirish ishlarida hamkorlik qilish va maqolalar chop etish) memorandumga asosan Odam anatomiyasi atlas-darsligini o'zbek, rus, ingliz va lotin tillarida yaratishga kelishib olindi va ishchi guruh shakllantirildi.

Ushbu atlas A.I.Yevdokimov nomidagi Moskva davlat tibbiyot stomatologiya universiteti va Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti professor-o'qituvchilarining hamkorlikda yaratgan birinchi yangi avlod adabiyoti hisoblanadi.

Atlas uch tomdan tashkil topgan bo'lib, anatomik terminlar 4 tilda (o'zbek, rus, ingliz, lotin) bayon etilgan. Atlasning har uchchala tomining so'ngida alifboli ko'rsatkich keltirilgan bo'lib, kerakli ma'lumotlarni topishni ancha yengillashtiradi.

Atlas zamonaviy ta'lim talablariga to'la mos kelib, talabalarga ushbu fanni chuqur o'zlashtirishga, klinik mushohadani shakllantirishga katta yordam beradi. Ushbu yaratilgan yangi avlod darsligi talaba-yoshlarning xalqaro darajadagi mutaxassislar bo'lib yetishishiga asos bo'lib xizmat qilishiga ishonaman.

Shuningdek, yaratilgan atlas O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi do'stlik rishtalarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi deb ishonch bildiraman.

A.Sh. Inoyatov

БЛАГОДАРНОСТИ

Вместо эпитафии. Один мудрец сказал:
«Многому я научился у своих наставников,
ещё большему – у своих товарищей,
но больше всего – у своих учеников».

Эта книга посвящена нашим Учителям и Наставникам Льву Львовичу Колесникову и Сергею Александровичу Тену, вдохновившим нас на её создание. Своим личным примером они задали нам высочайшие стандарты качества работы, которыми мы ежедневно руководствуемся в нашей академической деятельности. Только благодаря их вере в наши силы нам удалось осуществить свой творческий замысел, для реализации которого мы воспользовались накопленными ими уникальными знаниями и богатейшим опытом, являющимися для нас эталоном безукоризненного профессионализма, которые они заботливо и бережно передали нам в предварительно обобщённом и систематизированном виде.

Считаю приятным долгом выразить искреннюю и глубокую благодарность моему коллеге и соавтору Шухрату Жумаевичу Тешаеву, без равнодушного участия которого этого грандиозного международного проекта вовсе бы не было. Именно ему принадлежит идея создания столь востребованного в Узбекистане учебника-атласа. Я безгранично признательна Шухрату Жумаевичу за огромную организационную и методическую работу, которую он провёл, за многие часы напряжённого и кропотливого труда, вложенного им в воплощение нашей задумки.

Я счастлива и благодарна судьбе, моему научному руководителю и гостеприимному городу Бухара за то, что в далёком 2008 году на IX Международном конгрессе Ассоциации морфологов, проходившем в Республике Узбекистан, я получила возможность познакомиться с моими коллегами из Бухарского государственного медицинского института им. Абу Али ибн Сино, что, в свою очередь, послужило основой для дальнейшего плодотворного профессионального сотрудничества, результатом которого стала работа над этим изданием. Совместная реализация этого проекта подарила мне не просто верных соратников, а, что гораздо более важно, настоящих надёжных друзей и единомышленников. Именно поэтому мне хочется сказать огромное человеческое спасибо всем сотрудникам кафедры анатомии и клинической анатомии (ОХТА) Бухарского государственного медицинского института, осуществлявшим научное редактирование текста и подбор эквивалентных анатомических терминов на узбекском языке, и персонально поблагодарить ректора Амрилло Шодиевича Иноятова за проявленный интерес, личное участие и оказание необходимой административной поддержки, что, несомненно, воодушевило всех участников рабочей группы на скорейшее достижение поставленной цели. От всего сердца благодарю моих коллег Ахтама Болтаевича Раджабова, Равшана Раджабовича Баймурадова, Дилнозу Ахроровну Хасанову, Дилмурода Яхшиевича Хожиева, Назокат Рустамовну Темирову, Шахнозу Музаффаровну Камолову и Насибу Эсановну Тухсанову за то, что они были столь доброжелательны и отзывчивы в процессе совместной работы, проявляли внимание к мелочам, прислушиваясь к мнению авторов-составителей. Мне по-настоящему понравился весь процесс: было удовольствием работать с вами на протяжении этих и, надеюсь, ещё многих лет.

Нижайший поклон и отдельное спасибо моей маме — доктору Людмиле Николаевне Харибовой за всю её любовь и поддержку, а также любимому и самому лучшему на свете дедушке — Николаю Дмитриевичу Поландову, ставшему моим первым учителем и наставником, воспитавшему во мне человека, верящего в то, что «нет ничего невозможного», моей замечательной доченьке Алисочке за то, что она позволила мне провести так много времени в работе над этим проектом, а также семьям всех членов нашей команды, поддерживавшим нас в этих начинаниях. Хочу выразить свою глубочайшую признательность родным и близким Л.Л. Колесникова: супруге – Валентине Михайловне Воробьёвой и дочери – Наталье Львовне Колесниковой за искреннюю поддержку и выраженное одобрение нашей работы.

Кроме того, я хотела бы поблагодарить профессиональных рецензентов: профессоров Н.Х. Шамирзаева, И.В. Гайворонского, З.Ж. Усмонова и Д.С. Тухтасинову за их комментарии и ценные советы.

Я также благодарю всех высококвалифицированных специалистов издательства «BiTuVi Grupp» и людей, которые помогали им в подготовке этого издания, осуществляли набор и проверку рукописи, корректорам, редакторам и верстальщикам, вносящим в неё необходимые правки на каждом из трёх подготовительных этапов.

Е.А. Харибова

MINNATDORCHILIK

Epigraf o`rnida
“Biz uchun aziz va sevimli bo`lgan
insonlarning xotirasi ular yozgan
asarlarda umrbod yashaydi”.

Ushbu kitob, eng avvalo, uni yaratishga bizni ilhomlantirgan ustozlarimiz Sergey Aleksandrovich Ten va Lev Lvovich Kolesnikov larning yorqin xotiralariga bag`ishlanadi. Ular bosib o`tgan hayot yo`li, qoldirgan ilmiy meroslari, kasbiy va pedagogik mahorat, ulkan amaliy tajriba bizning mana shunday yuqori darajada ishlashimiz uchun asosiy tamal toshi bo`ldi.

Ushbu Xalqaro loyiha dunyo yuzini ko`rishiga asosiy sababchilardan biri – hamkasbim va hammuallif hisoblanmish Elena Aleksandrovna Xaribovaga chuqur minnatdorchilik izhor etishni o`zining burchim deb bilaman. Bizning yurtimizdagi tibbiyot institutlari uchun juda muhim sanalgan ushbu darslik-atlasning yaratilishidagi ulkan mashaqqat, katta ko`lamdagi mehnat, bajarilgan tashkiliy va uslubiy ishlar uchun Elena Aleksandrovnadan juda ham minnatdorman.

Tibbiyot asoschilaridan biri bo`lmish Abu Ali ibn Sino vatanida joylashgan va shu buyuk insonning nomi bilan ataluvchi Buxoro davlat tibbiyot instituti rektori Amrillo Shodiyevich Inoyatovga o`z minnatdorchiligimni bildiraman. Shuningdek, o`zbek anatomik terminlarni chuqur tahlil qilib, ularni darslik – atlasning ajralmas qismiga aylantirgan, har bir masalada diqqat va e`tibor bilan ishlagan Anatomiya va klinik anatomiya (OXTA) kafedrasida xodimlariga: Axtam Boltaevich Radjabov, Ravshan Radjabovich Baymuradov, Dilnoza Axrorovna Xasanova, Dilmurod Yaxshievich Hojiev, Nazokat Rustamovna Temirova, Shaxnoza Muzaffarovna Kamalova, Nasiba Esanovna Tuxsanova, Nabi Latipovich Bobomurodov, Nigora Hamrayevna Asadova, Mohinur Izzatilloevna Ismatova, Nigina Baxshillayevna Rustamova, Sadoqat Yuldashevna Saidovaga alohida minnatdorchilik izhor etaman. Bundan tashqari 2019 yilda davolash ishi, pediatriya va tibbiy pedagogika fakultetlari 2-3 kurslarida tahsil olgan bir guruh talabalarga texnik tomondan yordamlashganliklari uchun rahmat aytaman.

Mening har bir boshlagan ishimni o`zining oq fotihasi bilan qo`llab quvvatlagan, shu darajaga erishishimda asosiy suvanchig`im bo`lgan volidai muhtaramam – Adolat Rahmonovna Jo`rayevaga, rahmatli dadajonim – Juma Teshaevich Teshaevga, sevimli oila a`zolarimga, ayniqsa umr yo`ldoshim Zamira Zarifovna Hamdamovaga alohida ehtiromimni izhor etaman. Shuningdek, darslik-atlas ustida ishlagan har bir xodimning oila a`zolariga sabr – idroklari uchun rahmat aytaman.

L.L.Kolesnikovning oila a`zolari: umr yo`ldoshi – Valentina Mixaylovna Vorobyova va qizi – Natalya Lvovna Kolesnikovaga bizning ushbu loyihamizni chin dildan qo`llab quvvatlaganliklari uchun chuqur minnatdorchilik bildiraman.

Atlas – darslikni tayyorlashda maslahatchi-taqrizchi sifatida ishtirok etgan va ijobiy fikrlarini bildirib, qo`llab quvvatlagan professorlar: N. H. Shamirzayev, I.V. Gayvarovskiy, R.J. Usmonov, D.S. To`xtasinovalarga mualliflar guruhi nomidan minnatdorchilik izhor qilaman.

Men, shuningdek, «BiTuBi Grupp» nashriyotining yuqori malakali mutaxassislari, jumladan barcha kompyuterda tayyorlovchilar, musahhihlar, badiiy va texnik muharrirlarga ushbu kitobni tayyorlashning barcha bosqichlarida qo`shgan hissalarini uchun minnatdorchilik bildiraman.

SH.J. Teshaev



AKADEMIK KOLESNIKOV LEV LVOVICH

Rossiya Federatsiyasida xizmat ko'rsatgan ilmiy xodim, Rossiya Fanlar Akademiyasi akademigi, Rossiya Fanlar Akademiyasi eksperti, tibbiyot fanlari doktori, professor, Umumrossiya anatomlar, gistologlar va embriologlar ilmiy jamiyati prezidenti, A.I.Yevdokimov nomidagi Moskva davlat tibbiyot-stomatologiya universiteti Odam anatomiyasi kafedrasini mudiri. 400 dan ortiq ilmiy ishlar (monografiyalar, darsliklar, atlaslar, qo'llanmalar) muallifi.

SO`Z BOSHI

Kitobxonga havola etilayotgan ushbu atlas – darslik Rossiya Federatsiyasidagi A.I. **Evdokimov** nomidagi Moskva davlat tibbiyot stomatologiya universiteti va O'zbekiston Respublikasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti professor – o'qituvchilarining hamkorlikda yaratgan birinchi kitobi hisoblanadi.

Atlas 3 ta tomdan iborat bo'lib, tibbiyot oliy ta'lim muassasalari bakalavriyat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida anatomiya fani dasturlari va o'quv rejalari mos holda yaratilgan.

Atlasning birinchi tomida odam anatomiyasining osteologiya, artrosindesmologiya, miologiya bo'limlari keltirilgan. Osteologiya bo'limida har bir suyak bir necha xil ko'rinishda aks ettirilgan bo'lib, uning rentgenoanatomiyasi oldingi – orqa va yon proyeksiyada ko'rsatilgan.

Atlasning ikkinchi tomi splanxnologiya (hazm a'zolari, nafas, ayirish tizimi, erkaklar va ayollar jinsiy a'zolari tizimi), endokrinologiya va angiologiya (yurak- qon tomir va limfa) tizimlarini o'z ichiga olgan. Bu tomida har bir a'zo bo'yicha bir necha rangli rasmlar keltirilgan bo'lib, ularni o'rganishda o'ziga xos qulaylik yaratadi. Ushbu tomida 40 ta jadval keltirilgan bo'lib, har bir jadval ichidagi ma'lumotlar yordamida talaba tomonidan o'rganilgan mavzu mustahkamlanadi. Angiologiya bo'limi bo'yicha keltirilgan jadvalda har bir arteriyaning nomi, uning tarmoqlari, boshlanish joyi, arteriya yo'nalishi, qon bilan ta'minlanadigan sohasi batafsil ko'rsatib berilgan.

Ushbu adabiyotning uchinchi tomi nevrologiya va esteziologiya bo'limlarini o'z ichiga olgan. Bu tomida markaziy, pereferik va vegetativ nerv sistemasi rangli illyustratsiyalar asosida yoritilgan. Harakat va sezgi o'tkazuv yo'llari rangli sxemalarda berilgan bo'lib, talaba uchun o'zlashtirish jarayonini osonlashtiradi. Ko'rish, eshitish va vestibulyar analizatorlarning o'tkazuv yo'llari bir necha xil ko'rinishdagi sxemalarda namoyon etilgan.

Har bir bo'limni yakunlovchi qismida zamonaviy tibbiy diagnostik tekshiruv usullari orqali olingan rasmlar: rentgenoanatomiya, ultratovushli tadqiqot usuli, flebogramma, exokardiogramma, magnit - rezonans tomogramma orqali olingan rasmlar keltirilgan bo'lib, bu anatomiya fanini klinik tibbiyot bilan bog'liqligini yanada yaqqol ko'rsatib bergan.

Atlasda o'zbek va lotin tilidan tashqari rus va ingliz tillarda anatomik terminlarning keltirilishi O'zbekistonda tahsil olayotgan xorijlik talabalar va xorijda tahsil olayotgan O'zbekistonlik talabalar uchun anatomiya fanini o'zlashtirishga yordam beradi.

Rossiya va O'zbekiston olimlari tomonidan yaratilgan ushbu atlas birinchi qaldirg'och bo'lib, ayrim kamchiliklardan xoli bo'lmasligi mumkin. Ushbu kamchiliklar uchun oldindan uzr so'ragan holda o'quvchilar tomonidan bildiriladigan har qanday tanqidiy fikr va takliflar uchun oldindan o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.



USHBU KITOB HAQIDA

Tuzuvchi-mualliflardan

TESHAEV
Shuxrat
Jumayevich

XARIBOVA
Elena
Aleksandrovna



tibbiyot fanlari doktori, Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti Anatomiya, klinik anatomiya (OXTA) kafedrası professori.

tibbiyot fanlari nomzodi, A.I.Yevdokimov nomidagi Moskva davlat tibbiyot-stomatologiya universiteti Odam anatomiyasi kafedrası dotsenti.

O'zbekiston tibbiy hamjamiyati e'tiboriga birinchi marta to'rtta tilda chop etilayotgan "Odam anatomiyasi" darslik – atlasini havola etish biz uchun katta sharaf sanaladi.

XXI asr – intellektual rivojlanish asri bo'lib, har qaysi sohada bo'lgani singari, tibbiyotda ham har kuni yangi kashfiyotlar amalga oshirilmoqda, kecha tasavvur etib bo'lmaydigan narsalar, bugun hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Tibbiyot xodimlarini har tomonlama yetuk va bilimli qilib tarbiyalash – malakali ta'lim tizimiga bog'liq. Aynan shuning uchun, tibbiyotning asosi bo'lmish anatomiya fanini o'qitishga katta e'tibor qaratilgan.

Odam anatomiyasi – fundamental tibbiy – biologik fan bo'lib, inson tanasidagi a'zolar tizimini yaxlit va har bir a'zoni alohida o'rganadi, ularni vazifasiga bog'liq ravishda rivojlanish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Tibbiyotning rivojlanishi davomida uning asosini tashkil qiluvchi fanlar o'zgarmagan, lekin yangi klinik ma'lumotlarning olinishi, mavjud anatomik terminologiyaning takomillashuvi o'quv ma'lumotlarini bayon etishning an'anaviy shakllarini to'ldirilishini, o'quv qo'llanmalarga o'zgartirishlar kiritilishini, rasm va tasvirlarning qayta ko'rib chiqilishini, o'qitish uslublarining o'zgartirilishini taqozo qiladi. Bularning barchasi o'quv – uslubiy adabiyotlarni takomillashtirish kerakligidan darak beradi.

2018 yilning 18-19 oktyabr kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tgan birinchi "Rossiya – O'zbekiston ta'lim forumi" da ikki mamlakat yetakchi oliy o'quv yurtlari hamkorligida qo'shma fakultetlar ochish, qo'shma dasturlar asosida o'qitish, professor – o'qituvchilar malakasini oshirish, qo'shma ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, qo'shma o'quv va ilmiy adabiyotlar yaratish masalalari ko'rib chiqildi.

Fan va ta'lim doirasida xalqaro hamkorlik qilish maqsadida Rossiya Federatsiyasining A.I.Yevdokimov nomidagi Moskva davlat tibbiyot stomatologiya universiteti va Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti o'rtasida 2017 yil 19 maydagi №17 sonli (2-b band) (o'quv va o'quv-metodik qo'llanmalar yaratish, hamkorlikda monografiyalar tayyorlash, ilmiy tekshirish ishlarida hamkorlik qilish va maqolalar chop etish) memorandumga asosan "Odam anatomiyasi" atlas-darsligini o'zbek, rus, ingliz va lotin tillarida yaratishga kelishib olindi va ishchi guruh shakllantirildi.

Ushbu taqdim etilayotgan atlas A.I.Yevdokimov nomidagi Moskva davlat tibbiyot stomatologiya universiteti "Odam morfologiyasi" va Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti "Anatomiya, klinik anatomiya (OXTA)" kafedrası professor – o'qituvchilarining hamkorlikda yaratgan birinchi kitobi hisoblanadi.

Ushbu atlas barcha zamonaviy talablar asosida tayyorlangan bo'lib, inson tanasining tizimlashtirilgan anatomiyasi bo'yicha keng ko'lamdagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Atlas tibbiyot oliy ta'lim muassasalari bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida odam anatomiyasi fani dasturlari va o'quv rejalariga mos holda tuzilgan. Anatomik tushunchalarni yoritishda eng zamonaviy

usullardan foydalanilgan. Bundan tashqari ushbu kitobning chop etilishi morfologiya yo`nalishi uchun katta voqelikka aylanadi, chunki boshqa o`xshash atlaslar bilan taqqoslaganda ushbu adabiyot o`zlashtirishi qiyin bo`lgan anatomik terminlar va topografoanatomik sohalarni o`rganishni osonlashtiruvchi maxsus uslubda tayyorlangan. Anatomik atamalar nomini joylashtirilishida yirik hajmli va kam ma`lumotli rasm osti yozuvlari o`rniga atamalar nomi bevosita rasmning o`ziga uch tilda – o`zbek, lotin va rus tillarida joylashtirilgan. O`zbek tilidagi yozuvlar ko`k rang bilan ajratib qo`yilgan. Sahifalarning pastki qismida xuddi shu atamalar ingliz tilida ham berilgan, bu esa o`z navbatida atlasning chet el talabalari yoki chet elda tahsil olayotgan o`zbek va rus tilida so`zlashuvchi talabalarga foydalanishga qulaylik yaratadi. Kitobda ma`lumotlarni chuqurroq o`zlashtirish uchun jadvallar ham taqdim etilgan.

Bugungi kunda klinik amaliyot har bir a`zo va sohani qavatma – qavat kesmalarda o`rganishni talab qiladi. Shuning uchun biz rasm va tasvirlar xilma-xilligini kengaytirdik: odatiy sathlar bo`yicha ko`rsatilgan rasmlardan tashqari, voskli mulyajlarning rangli suratlaridan foydalandik. Bu esa uch o`lchamli tasvirda anatomik ma`lumotlar ko`lamini yanada oshirdi. Atlasda tabiiy ho`l preparatlardan olingan rasmlar ham talaygina. Shuningdek kitobda zamonaviy tekshirish usullari, ya`ni rentgenografiya, kompyuter va magnit-rezonansli tomografiya, exografiya, ultratovush tekshirishi orqali olingan suratlar ham keltirilgan bo`lib, anatomiya va nur tashxisotining o`zaro bog`liqligi yana bir bor isbotlaydi.

Mazkur adabiyot bir vaqtning o`zida ham darslik, ham atlas hisoblanib, 3 tomdan tashkil topgan bo`lib, 3 semestr davomida anatomiya fani o`qitiladigan hollarda har bir semestrda o`qitiladigan ma`lumotlar alohida tomda ajratilganligi juda qulay hisoblanadi.

Muallif – tuzuvchilar “Odam anatomiyasi” fanini o`qitish shakli va uslubiyotini saqlashga harakat qildilar. Atlasning birinchi tomda odam tanasining umumiy tuzilishi va tayanch – harakat tizimi (osteologiya, artrosindesmologiya, miologiya) haqida ma`lumotlar keltirilgan. Ikkinchi tom splanxnologiyaga (hazm a`zolari, nafas, ayirish tizimi, erkaklar va ayollar jinsiy a`zolari tizimi, endokrin va limfa tizimlari) va yurak – qon tomir tizimiga bag`ishlangan. Uchinchi tomda asab tizimi (markaziy, periferik va vegetativ asab tizimi) va sezgi a`zolarining tuzilishi to`liq bayon etilgan.

Kitobda odam anatomiyasi haqida keng qamrovli ma`lumotlar mavjud bo`lsa-da, atlas keraksiz ma`lumotlar bilan ortiqcha yuklanmagan. Atlasda materiallar mutanosib joylashtirilgan bo`lib, qulay, juda informatsion va zamonaviy usulda tuzilgan. Shubhasiz, o`zbek, lotin, rus va ingliz tillarida berilgan mavzu ko`rsatkichi va terminlar indeksi atlasdan foydalanishni osonlashtiradi, kitobxonga, shu jumladan chet ellik kitobxonga ham kitobdan izlagan mavzu va terminni osongina topishga imkon beradi.

Barcha atamalar amaldagi xalqaro nomenklaturalarga, jumladan, "Terminologia Anatomica" (1998), "Xalqaro anatomik terminologiya rus ekvivalentlarining rasmiy ro`yxati bilan" (2003), "Xalqaro anatomik terminologiya o`zbek ekvivalentlarining rasmiy ro`yxati bilan" (2007), "Terminologia Histologica" (2008), "Xalqaro anatomik atamalar" (2007), "Xalqaro nomenklaturalar" (2008), "Xalqaro Rossiya ekvivalentlarining rasmiy ro`yxati bilan inson sitologiyasi va gistologiyasi bo`yicha xalqaro atamalar" (2009) ga to`liq mos ravishda berilgan.

Shifokorlarning eponimlarga ko`proq suyanishiga qaramasdan (ya`ni, ularni birinchi marta tasvirlab bergan odamlarning nomlari bo`yicha anatomik tuzilmalar nomlari: Myuller kanali, Duglas bo`shlig`i v.h.k), dunyoning ko`plab rivojlangan mamlakatlarida faqatgina xalqaro anatomik atamalardan foydalanilganligi sababli bizlar ham faqatgina xalqaro anatomik atamalardan foydalanishga qaror qildik.

Kitobning muvaffaqiyat siri tasviriy materiallarning yuqori sifatdaligi va ranglar mutanosibligidadir. Atlasda 1500 dan ortiq eng yorqin, visual va informatsion tasvirlardan foydalanildi.

Ko`pgina ilgari chiqarilgan atlaslardan farqli, raqamlar bilan ko`rsatilgan anatomik tuzilmalarni terminlar bilan joyida belgilashni afzal ko`rdik, bu esa terminlarni tushunish va oson yodlashga yordam beradi.

Ushbu nashr ustida ish olib borishda, tuzuvchi-mualliflar kitobxonlarga mutlaqo yangi atlas formatini taklif qilishni o`z oldilariga qo`ydilar, ularning afzalliklarini quyida keltirib o`tmoqchimiz, bular:

1. Tibbiyot oliy o`quv yurtlarida odam anatomiyasini o`rganish uch semestr davomiyligini hisobga olgan holda, o`quv materiallari uchta tomga (kitobga) joylashtirildi.

2. Nashr xalqaro anatomik va gistologik terminologiyada keltirilgan anatomik va gistologik atamalardan foydalangan holda o`zbek, rus, lotin va ingliz tillarida terminlar indeksi ro`yxati shakllantirildi.

3. Klassik anatomik tasvirlar zamonaviy tibbiy vizualizatsiyaning zaruriy matnlari bilan boyitildi va quyidagi qo`shimchalar kiritildi:

- relyef anatomiyasi, shu jumladan ichki a'zolarining proektsiyalari
- taqdim etilgan obyektlarni tushuntiruvchi anatomik diagrammalar (konturlar)
- obyektlarni vizualizatsiya qilish usullarining kengaytirilgan ro'yxati
- intravital endoskopik rangli rasmlar
- arteriyalarning topografoanatomik joylashuv variantlarini ko'rsatuvchi chizmalar
- ichki a'zolarining (ichak, jigar, buyraklar va boshqalar) kam kattalashtirilgan gistotopografik qismlari tasvirlari.

4. Kerakli tuzilmalarni qulay qidirishni ta'minlash maqsadida, ular uchun maxsus didaktik metodlar ishlatilgan:

- mazmunga yaqin rasmlar sahifalar bo'yicha navbatma navbat joylashtirilgan
- har bir asosiy bo'lim ma'lum bir rang bilan belgilangan
- har bir sahifaning burilish qismida sarlavhaga aniq yo'nalishni ko'rsatuvchi ko'rsatkichlar keltirilgan

- yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tushunmovchiliklarni minimallashtirish uchun faqat o'ng a'zolarga tegishli rasmlar keltirilgan

- rasmdagi tuzilmalarni izlash doimiy rangli ko'rsatkichlar yordamida belgilangan
- atlas bilan ishlashni osonlashtiradigan eng maqbul kitob formati tanlangan
- anatomik atamani izlash to'rt tilda terminlar indeksi yordamida amalga oshiriladi.

"Odam anatomiyasi" atlas – O'zbekistonda o'xshashi bo'lmagan 4 tilda mukammal ishlangan adabiyot bo'lib, u nafaqat talabalar uchun anatomik bilimlar olamiga yetaklovchi eng yaxshi do'st, balkim anatomik atamalar va sharhlarning universal ma'lumotnomasi sifatida ishlatishi mumkin bo'lgan ilmiy xodimlar va shifokarlarning kasbiy faoliyatida qo'l keladigan qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Biz ushbu atlasni odam anatomiyasi sohasidagi ustuvor mahalliy nashrga aylanishiga chin dildan umid qilamiz.


Kelajakda bu kitob professor – o'qituvchilar, talabalar, shifokorlar va muharrirlarning doimiy hamkorligi natijasida bosqichma – bosqich takomillashib boradi va buning natijasida vaqt o'tishi bilan nafaqat fundamental ahamiyatini, o'z qadr-qimmatini, bilimning asosiy manbai sifatida yo'qotmaydi, balki eng yaxshi va sevimli ma'lumotnomaga, shifokorning butun hayoti uchun ish stoli kitobiga aylanishiga ishonamiz.

ОГЛАВЛЕНИЕ

7	ПИЩЕВАРИТЕЛЬНАЯ СИСТЕМА
85	ДЫХАТЕЛЬНАЯ СИСТЕМА
145	МОЧЕВАЯ СИСТЕМА
179	СИСТЕМА МУЖСКИХ ПОЛОВЫХ ОРГАНОВ
205	СИСТЕМА ЖЕНСКИХ ПОЛОВЫХ ОРГАНОВ
231	ЭНДОКРИННАЯ СИСТЕМА
249	СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТАЯ СИСТЕМА
257	Сердце
287	Артерии
421	Вены
513	Лимфатические сосуды, стволы и протоки
557	ЛИМФОИДНАЯ СИСТЕМА
568	ПРЕДМЕТНЫЙ УКАЗАТЕЛЬ
	На латинском языке
	На узбекском языке
	На русском языке
	На английском языке

MUNDARIJA

7	OVQAT HAZM QILISH TIZIMI
85	NAFAS OLISH TIZIMI
145	SIYDIK AYIRISH TIZIMI
179	ERKAKLAR JINSIY A`ZOLARI TIZIMI
205	AYOLLAR JINSIY A`ZOLARI TIZIMI
231	ICHKI SEKRETSIYA TIZIMI
249	YURAK QON-TOMIR TIZIMI
257	Yurak
287	Arteriya qon-tomirlar
421	Vena qon-tomirlar
513	Limfa tomirlari, poyalar va yo`llar
557	LIMFA TIZIMI
568	TERMINLAR (ATAMALAR) KO`RSATKICHI
	Lotin tilida
	O`zbek tilida
	Rus tilida
	Ingliz tilida



**ПИЩЕВАРИТЕЛЬНАЯ
СИСТЕМА**

**OVQAT HAZM QILISH
TIZIMI**

DIGESTIVE SYSTEM


1 – jadval. Ovqat hazm qilish tizimi

Tana qismlari, a'zo	A'zolar guruhi, a'zo	A'zo, a'zoning qismlari	A'zo qismlari
Og'iz bo'shlig'i	Og'iz dahlizi	Og'iz yorig'i	
		Og'iz lablari	Ustki lab, Pastki lab
		Lunj	Lunjning yog' tanasi
		Xususiy og'iz bo'shlig'i	
		Tanglay	Qattiq tanglay, yumshoq tanglay: tanglay chodiri
		Milk	
	Og'iz bo'shlig'i so'lak bezlari Katta so'lak bezlar	Til osti so'lak bezi Jag' osti so'lak bezi Quloq oldi so'lak bezi Qo'shimcha quloq oldi so'lak bezi	Til osti so'lak bezining katta nayi Til osti so'lak bezining kichik naylari Jag' osti so'lak bezi nayi Quloq oldi so'lak bezi nayi
	Mayda so'lak bezlari	Labdagi so'lak bezlar Lunjdagidagi so'lak bezlar Molyarlar so'lak bezlari Tanglaydagi so'lak bezlar Tildagi so'lak bezlar	
	Tishlar Kesuvchi (kurak) tishlar Qoziq tishlar Kichik oziq (premolyar) tishlar Katta oziq (molyar) tishlar	Yuqori jag' tishlari yoyi Pastki jag' tishlari yoyi Tish toji Tish bo'yni Tish ildizi	Tish pulpasi Dentin Emal Cement Periodont
	Til	Til tanasi Til ildizi Til orqa sohasi (ustki yuzasi) Til chekkasi Til uchi	Ipsimon so'rg'ichlar Konussimon so'rg'ichlar Tarnovsimon so'rg'ichlar Zamburug'simon so'rg'ichlar Varoqsimonsimon so'rg'ichlar
		Til so'rg'ichlari Til mushaklari	Tilning skelet mushaklari Engak - til mushagi Til osti - til mushagi Tog'ay - til mushagi Shoxsimon - til mushagi Bigizsimon o'siq - til mushagi Tanglay - til mushagi Tilning xususiy mushaklari Ustki bo'ylama mushak Pastki bo'ylama mushak Tilning ko'ndalang mushagi Tilning vertikal mushagi
	Tomoq; Bo'g'iz	Yumshoq tanglay; Tanglay chodiri	Tanglay tilchasi Til - tanglay ravog'i Tanglay - halqum ravog'i
		Yumshoq tanglay va tomoq muskullari	Tanglay chodirini ko'taruvchi mushak Tanglay chodirini taranglovchi mushak Tilcha mushagi Tanglay - til mushagi Tanglay - halqum mushagi
Halqum	Halqum bo'shlig'i	Halqumning burun qismi Halqumning og'iz qismi Halqumning hiqildoq qismi Halqumning muskullari	Halqumning yuqorigi qisuvchi mushagi Halqumning o'rta qisuvchi mushagi Halqumning pastki qisuvchi mushagi Bigizsimon-halqum mushagi Nay-halqum mushagi
Qizilo'ngach	Qizilo'ngachning bo'yin qismi Qizilo'ngachning ko'krak qismi Qizilo'ngachning qorin qismi	Ko'krak qismidagi torayma Diafragma toraymasi	




Tana qismlari, a'zo	A'zolar guruhi, a'zo	A'zo, a'zoning qismlari	A'zo qismlari
Me'da	Me'daning kardial qismi Oshqozon tubi Oshqozon gumbazi Oshqozon tanasi Oshqozonning pilorik qismi Oshqozonning chiqish teshigi (pilorus) Katta egrilik Kichik egrilik Oldingi devor Orqa devor	Kardial teshik Kardial o'yma Oshqozon kanali Oshqozonning pilorik kanali Pilorik qismidagi bo'shliq (g'or) Oshqozon pilorik qismining teshigi Pilorik qismidagi qisuvchi mushak Seroz parda Seroz osti asosi Mushakli parda Shilliq osti asosi Shilliq parda	Bo'ylama uzunasiga ketgan qavat Halqali qavat Qiya tolalar Oshqozon burmalari Oshqozon maydonchasi Oshqozon chuqurchalari Oshqozonning xususiy bezlari
Ingichka ichak	O'n ikki barmoq ichak	Seroz parda Mushakli parda Shilliq parda Yuqorigi qismi Pastga tushuvchi qismi Gorizontal qismi; pastki qism Ko'tariluvchi qism O'n ikki barmoq ichak bilan och ichak ortasidagi bukilma	Bo'ylama uzunasiga ketgan qavat; Uzun qadamli burama qavat Halqali qavat; Kalta qadamli burama qavat Halqasimon burmalar Ingichka ichakdagi tukli hosilalar (Vorsinkalar) Ingichka ichak bezlari Yakka-yakka limfa tugunlari To'plangan limfa tugunlari Kengaygan soha (Ampula) piyozcha O'n ikkibarmoq ichakning ustki bukilmasi O'n ikkibarmoq ichakning pastki bukilmasi O'n ikkibarmoq ichakning katta so'rg'ichi O'n ikkibarmoq ichakning kichik so'rg'ichi
	Och ichak		
	Yonbosh ichak	Yakuniy qism	Yonbosh ichak divertikuli
Yo'g'on ichak	Ko'r ichak	Yonbosh ichak teshigi Chuvalchangsimon o'simta; Appendix	Yonbosh ichak teshigining yuganchasi Yonbosh chamber ichaklar orasidagi labi; Ustki lab Yonbosh va ko'r ichaklar orasidagi labi; Pastki lab Chuvalchangsimon o'simta teshigi
	Chambar ichak	Ko'tariluvchi chamber ichak Chambar ichakning o'ng bukilmasi; Chambar ichakning jigar bukilmasi Ko'ndalang chamber ichak Chambar ichakning chap bukilmasi; Chamber ichakning taloq bukilmasi Tushuvchi chamber ichak Sigmasimon chamber ichak Mushak parda	Chambar ichakning yarim oysimon burmalari Yo'g'on ichakning qavariq joylari (gaustralari) Yog' o'simtalari Bo'ylama qavat Chambar ichak tasmasi Tutqich tasmasi Charvi tasmasi Erkin tasma Halqali qavat
	To'g'ri ichak	Dumg'aza egriligi Lateral egriliklar To'g'ri ichakning ko'ndalang burmalari To'g'ri ichak kengaymasi Mushak parda	Ustki lateral egriligi Lateral oraliq egriligi Pastki lateral egriligi Chiqaruv teshigi kanali Chiqaruv teshigi va to'g'ri ichak bitishmasi Chiqaruv teshigi ustunchalari Orqa teshik qopqog'i Orqa teshik bo'shlig'i (sinusi) Orqa teshikni qisuvchi tashqi mushak Orqa peshov Bo'ylama qavat Halqali qavat Orqa teshikni qisuvchi ichki mushak To'g'ri ichakning yon boylami

Tana qismlari,a'zo	A'zolar guruhi, a'zo	A'zo, a'zoning qismlari	A'zo qismlari
Jigar	Jigarning o'ng bo'lagi Jigarning chap bo'lagi Kvadrat bo'lagi Dumli bo'lak	Diafragma yuzasi Ichki a'zolarga qaragan yuza Jigar darvozasi Jigarning segmentlarga bo'linishi: bo'laklar, qismlar, sohalar va segmentlar	O't pufagi chuqurchasi Yumaloq boylam yorig'i Jigarning yumaloq boylami Darvoza venasi Jigar arteriyasi Jigarning umumiy o't yo'li Jigarning o'ng o't yo'li Jigarning chap o't yo'li Jigarning chap bo'lagi Chap lateral soha Orqa chap lateral segment; Segment 2 Oldingi chap lateral segment; Segment 3 Chap medial soha Chap medial segment; Segment 4 Jigarning orqa qismi; Dumsimon bo'lagi; Segment 1 Jigarning o'ng qismi O'ng medial soha Oldingi o'ng medial segment; Segment 5 Orqadagi o'ng medial segment; Segment 8 O'ng yon soha Oldingi o'ng lateral segment; Segment 6 Orqadagi o'ng lateral segment; Segment 7 Jigar bo'lakchasi
Jigarning umumiy o't yo'li	Jigarning o'ng o't yo'li Jigarning chap o't yo'li		
O't pufagi	O't pufagining tubi O't pufagining tanasi O't pufagining bo'yni O't yo'li Umumiy o't yo'li	Umumiy o't yo'lining qisuvchi mushagi	Kengaymaning qisuvchi mushagi
Oshqozon osti bezi	Oshqozon osti bezi boshchasi Oshqozon osti bezi bo'yni Oshqozon osti bezi tanasi Oshqozon osti bezi dumi Qo'shimcha oshqozon osti bezi	Oshqozon osti bezining ekzokrin qismi Oshqozon osti bezi endokrin qismi (pankreatik orolchalar)	Oshqozon osti bezining nayi Oshqozon osti bezi nayining qisuvchi mushagi



Rasm № 1. Ovqat hazm qilish a'zolari tizimi (chizma).
Рисунок № 1. Пищеварительная система (схема).


- | | | | |
|------------------------|------------------------|-----------------------------|----------------------------|
| 1 Rectum | 8 Duodenum | 17 Maxillary dental arcade; | 25 Stomach |
| 2 Ileum | 9 Gallbladder | Upper dental arcad | 26 Pancreas |
